



INVESTITSIYA FAOLIYATINI AMALGA OSHIRISHDA BANK KREDITLARINING AHAMIYATI

THE IMPORTANCE OF BANK LOANS IN CONDUCTING INVESTMENT ACTIVITIES

¹**Bojev Bekzodjon**
Jo'raqul o'g'li,
²**Shavkatov Behruz**
Rustam o'g'li

¹Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, "Korporativ moliya va qimmatli qog'ozlar" kafedrasi dotsenti, PhD. E-mail: bekzodbek_92@inbox.ru
Orcid: 0000-0003-0069-8739 2. ²Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Bank ishi fakulteti 3-kurs talabasi. G-mail: shavkatovbehruz02@gmail.com
Orcid: 0009-0007-0780-5724

Annotatsiya Annotation

Uzb. - Mazkur maqolada investitsiya faoliyatini moliyalashtirishda bank kreditlarining o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Maqolada investitsiya jarayonlarida tijorat banklari ishtiroki, kredit turlari, ularning afzalliklari va iqtisodiyotga ko'rsatadigan ta'siri yoritiladi.

Eng. - This article analyzes the role and significance of bank loans in financing investment activities. It highlights the participation of commercial banks in investment processes, types of loans, their advantages, and their impact on the economy.

Kalit so'zlar: Keywords:

❖ *investitsiya, bank krediti, kredit siyosati, tijorat banklari, asosiy kapitalga investitsiyalar, investitsiya loyihasi, qarz mablag'lari.*

❖ *investment, bank loan, credit policy, commercial banks, fixed capital investments, investment project, borrowed funds.*

Kirish.

Bugungi kunda bank kreditlari iqtisodiyotni rivojlantirishda, ayniqsa, yirik infratuzilma va ishlab chiqarish loyihalarini amalga oshirishda asosiy moliyaviy manbalardan biri hisoblanadi. Shuningdek, investitsiya kreditlari jahon iqtisodiyotining rivojlanishi va xalqaro integratsiyada muhim rol o'ynaydi. Darhaqiqat, investitsiya kreditlari tijorat banklarining milliy va global moliyaviy bozorlardagi uzoq muddatli strategiyasini amalga oshirishda hamda xalqaro munosabatlarni rivojlantirishda eng muhim omil sifatida xizmat qiladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, an'anaviy va zamonaviy kreditlash shakllarini o'z ichiga olgan investitsiya kreditlari milliy, xorijiy va xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlik o'rnatish va rivojlantirish uchun qo'llaniladi. Shu bilan birga, rivojlangan davlatlar, xususan,

Germaniyada jami doimiy kapital investitsiyalarining 49,5 foiz, AQShda 62 foiz, Buyuk Britaniyada esa 76,5 foiz investitsiya kreditlari hisobiga shakllanadi [1]. Bugungi kunda investitsiya kreditlariga bo'lgan talabning ortisdhi tijorat banklarida investitsiya kreditlash tizimini takomillashtirish zaruratini keltirib chiqarmoqda.

Har qanday investitsiya loyihasi mablag'lar mavjud bo'lganda amalga oshirilishi mumkin. Investitsiya loyihasini moliyalashtirishning asosiy vazifasi — loyiha amalga oshirilishining har bir bosqichida zarur investitsiya xarajatlarini pul mablag'lari bilan qoplashdir.

O'zbekiston Respublikasi Hukumatining qarorlari va soha bo'yicha boshqa tegishli normativ hujjatlar ijrosini ta'minlash, shuningdek, yuqoridagi muammolarni hal etish

yo'llarini chuqur ilmiy, nazariy va metodologik jihatdan o'rganish hamda tijorat banklarida investitsiya kreditlashni rivojlantirish muhim vazifalardan biridir.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Ko'plab xorijiy va mahalliy iqtisodchilar tijorat banklarida investitsion kreditlashning samaradorligi bo'yicha tadqiqotlar olib borishmoqda.

Rossiyalik iqtisodchilar M.V. Alikoeva va L.O. Aslanovlar fikricha, investitsion bank kreditlari odatda loyiha qaytarish muddatidan oshmagan holda kamida bir yilga tasdiqlangan loyiha smetalari doirasida beriladi [2].

M.Fridman bozor iqtisodiyotida kreditlar va investitsiyalar erkin mexanizmlar asosida taqsimlanishi kerak deb hisoblagan. U davlat aralashuvi minimal bo'lishi tarafdori bo'lib, bank kreditlari bozor talabiga muvofiq shakllanishi zarurligini ta'kidlagan.

Fridman quyidagi g'oyalarni ilgari surgan:

1. Bank kreditlarini iqtisodiy o'sishning muhim elementi sifatida ko'rgan.
2. Kredit siyosatining notog'ri boshqarilishi inflyatsiya va iqtisodiy beqarorlikka olib kelishini ko'rsatgan.
3. Bank kreditlari orqali investitsiyalarni moliyalashtirishda pul-kredit siyosatini qat'iy nazorat qilish zarurligini ta'kidlagan [3].

Mahalliy olimlardan O'Jo'rayev "Tijorat banklarining investitsiya faoliyatini rivojlantirish yo'nalishlari" nomli maqolasida tijorat banklarining investitsion faoliyatini rivojlantirish istiqbollari, xorijiy va mahalliy tajribalar, shuningdek, banklarning investitsion faoliyatini samarali tashkil etish bo'yicha tavsiyalarni taqdim etadi [4].

G.Malikova tijorat banklarida investitsion faoliyatning kamchiliklari, muammolari va ularni yechimlarini tahlil qiladi. Muallifning ta'kidlashicha, tijorat banklarida investitsion faoliyatning sust rivojlanishiga bir qator omillar – jumladan, investitsiya muhitining noaniqligi, risklarni boshqarish tizimining yetarli darajada shakllanmagani, moliyaviy vositalarning yetarli darajada xilma-xil emasligi hamda kadrlar salohiyatining pastligi sabab bo'lmoqda [5].

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqot doirasida tizimli tahlil, ilmiy mushohada, tahlil va sintez, induksiya hamda deduksiya kabi ilmiy tadqiqot metodlaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

O'zbekiston iqtisodiyotining barqaror o'sishi, sanoat, infratuzilma, qishloq xo'jaligi va boshqa sohalarida yirik investitsiya loyihalarining amalga oshirilishi zahirida banklar tomonidan ajratilayotgan investitsiya kreditlarining o'rni beqiyosdir. Investitsiya kreditlari O'zbekiston iqtisodiyotining barqaror o'sishini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. 2024-yilda investitsiyalar YaIMning 38,6 foizini tashkil etdi, bu esa mamlakatda investitsiyalar darajasining yuqori ekanligini ko'rsatadi.

Xorijiy investitsiyalar va kreditlar infratuzilma, energetika va sanoat sohalaridagi yirik loyihalarni moliyalashtirishda asosiy manba bo'lib xizmat qilmoqda. Quyidagi jadvalda tijorat banklari tomonidan 2024-yilda ajratilgan kreditlar tahlili keltirilgan:

1-jadval

2024-yilda tijorat banklari tomonidan ajratilgan kreditlar: oylar va maqsadlar kesimidagi tahlil (mlrd. so'm) [5]

Davr	Jami	shundan				
		Asosiy vositalarni sotib olish uchun	Aylanma mablag'larni to'ldirish uchun	Yuridik shaxslarga yangi qurilish va rekonstruksiya uchun	Aholiga uy-joy qurish va sotib olish uchun	Boshqa maqsadlar

2024-yil	287 181,5	30 546,9	126 290,0	6 986,6	17 079,6	106 278,3
Yanvar	14 655,8	2 302,7	5 191,7	264,4	1 110,6	5 786,4
Fevral	19 562,2	3 719,2	7 036,7	355,3	1 566,9	6 884,1
Mart	19 433,4	3 011,0	7 223,0	343,4	1 055,6	7 800,3
Aprel	22 581,6	2 682,7	8 466,6	311,9	1 272,4	9 848,0
May	25 729,2	1 950,5	12 807,2	451,6	1 181,6	9 338,2
Iyun	24 777,7	2 146,1	11 959,6	818,3	1 204,0	8 649,7
Iyul	26 503,3	2 436,6	12 705,8	869,2	1 680,1	8 811,5
Av gust	24 407,5	2 454,7	10 944,1	636,2	1 475,3	8 897,2
Sentabr	22 437,8	1 852,2	9 617,0	701,3	1 744,5	8 522,9
Oktabr	28 595,0	2 585,8	12 906,5	636,3	1 596,4	10 870,0
Noyabr	25 594,2	2 245,9	11 094,6	486,8	1 516,7	10 250,2
Dekabr	32 903,9	3 159,6	16 337,0	1 111,9	1 675,6	10 620,0

1-jadval ma'lumotlariga ko'ra, tijorat banklari tomonidan ajratilgan kreditlar ichida eng katta hajm (126,3 trln. so'm) aylanma mablag'larni to'ldirish uchun yo'naltirilgan. Eng past ko'rsatkich esa yuridik shaxslarga yangi qurilish va rekonstruksiya ishlari uchun ajratilgan kreditlar bo'lib, bu ko'rsatkich 7 trln. so'mni tashkil qilgan.

Jadvaldagi oylik dinamikaga e'tibor qaratsa, aylanma mablag'larni moliyalashtirish uchun ajratilgan kreditlarning

eng yuqori hajmi dekabr oyida qayd etilgan (16,3 trln. so'm). Shuni alohida ta'kidlash joizki, asosiy kapitalga yo'naltirilayotgan investitsiyalar tarkibida bank kreditlari va boshqa qarz mablag'lari muhim manbalardan biri sifatida alohida o'rin egallaydi. Quyidagi rasmda O'zbekiston Respublikasida asosiy kapitalga investitsiyalar tarkibida tijorat banklari kreditlari va qarz mablag'lari hajmining yillik dinamikasi aks ettirilgan.



1-rasm. Asosiy kapitalga investitsiyalarda tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag'lari hajmi (2020-2024-yillar, mlrd. so'm) [5]

1-rasmdan ko'rinib turibdiki 2024-yilda asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarda tijorat bank kreditlari va qarz mablag'lari 12 trln 700 mlrd so'mni tashkil

qilgan. Ushbu ko'rsatkich 2020-yilda 28 trln 520 mlrd 900 mln so'mni tashkil qilgan. O'tgan 5 yil mobaynida ushbu ko'rsatkich 55,5 foziga kamayganini ko'rishimiz mumkin. Bu esa

tijorat banklarining investitsion faoliyatida sezilarli pasayish kuzatilganini anglatadi. Mazkur tendensiya bir necha omillar bilan izohlanadi. Birinchidan, 2020-yildan keyingi davrda global pandemiya, iqtisodiy beqarorlik va tashqi moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatining cheklanishi bank kreditlari hajmining qisqarishiga olib keldi. Ikkinchidan, tijorat banklari kredit siyosatini ehtiyotkorlik bilan yurita boshladi, bu esa investitsion loyihalarga yo'naltirilayotgan mablag'lar hajmining kamayishiga sabab bo'ldi.

Bundan tashqari, banklarning kredit portfelida qisqa muddatli kreditlar ulushining yuqoriligi, uzoq muddatli investitsion loyihalarning nisbatan yuqori risklarga ega ekani banklarni investitsion faoliyatdan ko'ra, tezkor daromad keltiruvchi operatsiyalarga ko'proq e'tibor qaratishga undagan. Natijada, iqtisodiyotning real sektorida, xususan, ishlab chiqarish, infratuzilma va energetika kabi muhim tarmoqlarda investitsiya manbalarining qisqarishi kuzatildi.

Xulosa va takliflar.

Investitsiya faoliyatining samarali tashkil etilishi mamlakat iqtisodiy taraqqiyotining

muhim omillaridan biri hisoblanadi. Ushbu jarayonda bank kreditlari muhim moliyaviy manba sifatida alohida o'rin tutadi. Banklar tomonidan beriladigan investitsiya kreditlari ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, yangi ish o'rinlarini yaratish hamda innovatsion loyihalarni moliyalashtirish imkonini beradi.

Banklar investitsiya loyihalarini baholash va monitoring qilish orqali nafaqat kapitalni samarali taqsimlaydi, balki investitsiya muhitining barqarorligini ta'minlashga ham xizmat qiladi. Natijada, bu umumiy iqtisodiy faollikni oshirish va ijtimoiy farovonlikka erishishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, bank kreditlari investitsiya faoliyatining asosiy turtki omillaridan biri hisoblanadi va ularni oqilona hamda samarali boshqarish orqali mamlakat iqtisodiyotida barqaror o'sishni ta'minlash mumkin. Shu sababli, investitsiya kreditlarini rivojlantirish, kredit siyosatini takomillashtirish hamda bank tizimini mustahkamlash bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Norov, A. R, Yuldashev, J. A, Sattorova, N. G, Turgunova, K. S. qizi, & Ibragimov, I. K. (2022). "The Role of the Foreign Exchange Market in Ensuring the Stability of the National Currency in the Country". *Spanish Journal of Innovation and Integrity*, 6, 20-27.
2. Mazurina T.Yu. *Banking investment lending: current state, problems and development prospects*// *Money and Credit*.-Moscow, 2013.-No.4.-P. 33.
3. M.Friedman, A.Schwartz. "A Monetary History of the United States, 1867-1960". Princeton University Press. Princeton, USA. 1963.
3. Jo'rayev, O. (2024). Tijorat banklarining investitsiya faoliyatini rivojlantirish yo'nalishlari. *Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot*, 1(2). <https://doi.org/10.5281/zenodo.13152891>
4. Malikova G.T. Tijorat banklarda investitsion faoliyatdagi muammolar tahlili // *Экономика u соцуум*. 2024. №2-1 (117). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/tijorat-banklarda-investitsion-faoliyatdagi-muammolar-tahlili> (dama obraçeniya: 06.06.2025).
4. <https://cbu.uz> - O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki.
5. <https://www.stat.uz> - O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi.